ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SINONIMLARDA MIQDOR O'ZGARISHLARINING AYRIM KO'RINISHLARI XUSUSIDA

Vafoyeva Muxayyo Yuldoshevna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Miqdor va sifat rivojlanishning umumiy qonuni sifatida obyektiv voqelikning rivojlanishi, o'zgarishlarini aks ettiradigan falsafiy kategoriyalar hisoblanadi. Dialektika qonunlaridan biri miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi qoida umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi: miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni narsaning miqdor va sifat tomonlarining shunday bir o'zaro aloqasini aks ettiradiki, uning ta'sirida miqdor o'zgarishlari me'yor chegarasidan chetga chiqib, albatta tub sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladi, bu sifat o'zgarishlari esa, o'z navbatida, yangi miqdor ko'rsatkichlariga olib keladi[1]. Biron predmetning boshqa predmet bilan munosabatlarida uning turli xossalari namoyon bo'ladi[2].

Falsafaning bu kategoriyasini lingvistika bilan bog'liq holda talqin qilish mumkin. O'zbek tilshunosligida Hakim Shamsiddinov o'zining doktorlik dissertatsiyasida miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi ta'sirida funksional-semantik sinonimlarning yuzaga kelishini, bu qonunning so'z doirasida amal qilishini tahlil qiladi: "sinonim hisoblangan so'zlar denotat bildirishiga ko'ra bir narsani bildiradi, ammo ularning miqdor jihatdan bir nechaligi har birining ma'lum doirada, uslubda qo'llanishiga ko'ra xoslanishini vujudga keltiradi, ya'ni sifat jihatidan farqini yuzaga chiqaradi"[3].

Biz ishimizda mazkur qonunni leksik-frazeologik**,** frazeologik sinonimlar shuningdek, matn bilan bog'liq yaqin ma'noli frazemalar doirasida amal qilishini tahlilga tortdik.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, mazkur qonun emotiv lug'aviy birliklarda quyidagicha namoyon bo'ladi:

1.Leksik-frazeologik sinonimlar miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonunini aks ettiradi. Ma'lumki, leksik-frazeologik sinonimlar so'z va ibora o'rtasidagi ma'nodoshlik hodisasi hisoblanadi: Qurvonbibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar *kamgap, indamas, damini ichiga solgan*, ziqna odam edi (Cho'lpon. Kecha va kunduz). Berilgan misolda so'zga epchil Qurvonbibi hamda "ko'p gapirishni yoqtirmaydigan, kam gapiradigan" Razzoq so'fining xarakter xususiyati taqqoslangan. Gapda umumnutqqa xoslangan *kamgap, indamas, ziqna* leksemalari hamda *damini ichiga solgan* frazemasining uyushib, miqdor jihatdan orttirilishi u anglatgan ma'noning kuchayishi, ta'kidlanishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, badiiy asarlarda so'zlarning ortiqcha qo'llanishi asarning badiiyligiga putur yetkazadi. Sinonimlarning takror qo'llanishi, ya'ni bir umumiy ma'noda birlashuvchi sinonim so'zlar, erkin birikmalar yoki frazemalarning turli maqsadlarda bir gapning o'zida yonma-yon, uyushgan holda kelishi – miqdor jihatdan orttilishi ortiqcha bo'lmay, uslubiy maqsad – ma'noning kuchayishi va ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Sinonimik takrorning sababi shundaki, ikkinchi, qayta takrorlanib kelgan frazemaning ta'sir kuchi, ma'no aniqligidagi ustunlik nisbiy bo'lib, u o'sib boradi, o'zi bilan yonma-yon turgan sinonimga nisbatan bo'rtib turadi va o'ziga xos uslubiy vazifani bajarib keladi. Bundan ko'rinadiki, frazemalarda so'zlarga nisbatan qo'shimcha ravishda obrazlilik, o'zgacha emotsionallik va ekspressivlik vazifalari mavjud: *Xursand, ko'ngli ochilgan,* allanechuk yengillagan ko'zlari, yuzlari, butun borlig'i bilan kulgani holda ildam-ildam bosib, ko'chaga chiqdi. (Cho'lpon.Kecha va kunduz)

Leksik-frazeologik takrorlar badiiy adabiyotda muallif bayonida ham, personajlar nutqi tarkibida ham bemalol qo'llanib, ma'noni kuchaytirish va unga aniqlik kiritish bilan birga qahramonlar nutqini individuallashtirish maqsadida ishlatiladi va fikrni ifoda etishning xarakterli vositasi bo'lib xizmat qiladi: Buni qarang-a, *sho'x, yerga ursa osmonga sapchiydigan, bebosh* bolasi bugun yurtning o'g'ziga tushibdi (S.Ahmad. Ufq). Umumnutq (sho'x, yerga ursa osmonga sapchiydigan) va so'zlashuv nutqi-

[1] Шермухамедова Н. Фалсафа. Дарслик. – Тошкент, 2010. – Б. 294.
[2] Философия луғати – Тошкент, Ўзбекистон, 1976. – 427 б.
[3] Шамсиддинов Ҳ. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари: Док.дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 68.

ga (bebosh) xoslangan leksik-frazeologik takrorlar so‘z+frazema+so‘z tartibida shakllangan hamda bir shaxsning xarakter xususiyatini yorqinroq ochishga, asarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Sho‘x leksemasiga nisbatan “yerga ursa osmonga sapchiydigan” farzemasida uslubiy baho kuchli ifodalangan, bebosh leksemasida “hech kimga quloq solmaydigan, itoatsiz” kabi ma’no qirralari ta’kidlangan bo‘lib, unda salbiy munosabat yaqqol ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Leksik-frazeologik sinonimlar umumiy bir semantik xususiyatni ifodalasa-da, lekin frazemalar sinonimlari bo‘lgan leksemalarga nisbatan obrazlilik ottenkasiga egaligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi: Esh polvon shunday deb tagiga bosib o‘tirgan *yangi, hali ohori ketmagan to‘nini* oldi-yu bir siltab qoqib, Azizxonning yelkasiga tashladi. (S.Ahmad. Ufq);

Ba’zan bir matnda leksik-frazeologik sinonimlar alohida-alohida gap tarkibida yonma-yon qo‘llanishi mumkin: Ana, ko‘chada Tursunboy degan sart qorovul bor, hali ham ko‘cha supurib yuradi. Olti so‘m oylik oladi… O‘shaning ishini qilishga o‘zingizni ko‘ndira olasizmi? *Xursand! Vaqti chog‘!* Qachon ko‘rsangiz, ashula aytadi (Cho‘lpon.Kecha va kunduz). Berilgan alohida-alohida gapda yonma-yon qo‘llangan yaqin ma’noli leksema va frazemaning har biri tugallangan fikrni kuchli ijobiy emotsiyada ifodalab kelgan. Yoki yana bir misol: Chamasi ular oshiq-ma’shuq, baloxo‘r xon loaqal shunga cho‘vagini tiqmasa nima qilar edi. Bechora qiz shunday *xafa. Dor-dunyosi qop-qorong‘u.* (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon) Shaxsning “g‘amli, qayg‘uli” holatining sinonimligi umumnutq leksemasi (xafa) bilan badiiy nutq frazemasi (dor-dunyosi qop-qorong‘u) orasida kuzatiladi. Xafa leksemasiga nisbatan “dor-dunyosi qop-qorong‘u” frazemasida salbiy emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik obrazli ifodalanishi bilan birga, belgining kuchli darajada o‘sishini kuzatish mumkin.

Qashqir *og‘zi qulog‘ida, ishshayib* kelardi (O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi). Shaxslarning ovozsiz, vaziyatga nisbatan kulgi holati lug‘aviy birliklar – og‘zi qulog‘ida frazemasi va ishshayib leksemalarining uyushib kelishida aks ettirilgan. Umumnutqqa xoslangan “og‘zi qulog‘ida” frazemasi nutq vaziyatiga qarab, ijobiy yoki salbiy baho ifodalashi mumkin, “ishshayib” leksemasi esa salbiy munosabat ifodasiga ega. Shuningdek, berilgan misoldagi frazeologik-leksik sinonimlarning yonma-yon qo‘llanishidan salbiy baho munosabati darajama-daraja o‘sib, kuchayib borgan.

2. Sinonim frazemalar miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi qonunini aks ettiradi. Frazeologik sinonimlar uyushib-takrorlanib kelganda asosan ma’noni kengaytirish va unga aniqlik kiritish vazifalarini bajaradi: Bordi-yu, eshigidan kirishim bilan *dod solib*, *olamni boshiga ko‘tarsa-chi*! (O‘.Hoshimov). Berilgan misolda umumnutq frazemasi (*dod solmoq*) bilan badiiy nutq frazemasi (*olamni boshiga ko‘tarmoq*) o‘zaro sinonimlik hosil qilgan.

Sinonim frazemalar badiiy matn tarkibida uyushib kelganda ularning joylashuvi pala-partish holda bo‘lmasdan nutqiy vaziyat uchun mos keluvchi, o‘z fikrlarining to‘g‘ri va aniq tushunilishini ta’minlashga xizmat qiluvchi ko‘rinishlari tanlab olinadi va har biri tartib bilan o‘z o‘rniga qo‘yiladi, ularning bu tartibida ham ma’lum bir uslubiy maqsad ko‘zda tutilgan bo‘ladi. Masalan, sinonimik takrorlar biror voqea-hodisa yoki predmet tasvirida shu ifoda etilayotgan predmet yoki hodisadan belgining o‘sib borishini ko‘rsatar ekan, takrorlanib kelgan sinonimlardan ikkinchisining belgi anglatish xususiyati birinchisiga nisbatan yuqoriroq, balandroq bo‘ladi: Azizxon uning gaplariga quloq solmas, *ko‘zlaridan o‘t chaqnab, g‘azab otashida kuyib-yonib* yugurar edi (S.Ahmad). Badiiy uslubga xoslangan “ko‘zlaridan o‘t chaqnamoq”, “g‘azab otashida kuyib-yonmoq” frazemalarining qator kelishi oddiygina “g‘azablanishni” emas, “qattiq g‘azablanishning ortiq darajada” ma’no komponentini bo‘rttirib ifodalashga xizmat qilgan.

Umumnutqqa xoslangan “qo‘ydek yuvosh, musichadek beozor” frazemalari asosan shaxsning xarakter-xususiyatini ifodalashga xizmat qiladi, ammo mazkur gapda shaxs holati uchun qo‘llangan, intensivlikni yuzaga keltiruvchi bu frazemalar miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishini aks ettiradi: Dyadya Vasyaning ichagini boshiga salla qilib qo‘ysin-da, men *qo‘ydek yuvosh, musichadek beozor* bo‘lib turaveraymi! Yo‘q! Qonga-qon! Jonga-jon! (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi).

Ba’zan umumnutq va badiiy nutq frazemalarining sinonimik takrorlaridan hosil qilingan to‘liq qofiyalarni yaratish asarda qo‘shimcha g‘oyaviy-badiiy vazifa bajaradi, ya’ni misralarning vazn o‘lchovini, ritmik-intonatsion yaxlitligini ta’minlashini kuzatishimiz mumkin:

Safga tizil nabiram, otajonim tur endi,
Mustaqillik nash’asin, haqqing bordir, sur endi.
Qo‘ling berib qo‘llarga, bir tan bo‘lib yur endi,
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo‘lsin
O‘zbekning o‘z niholin ekkanligi rost bo‘lsin
(A.Oripov).

Shuningdek, bunday takrorlar matn mazmunini kuchaytirish, asar tilining ta’sirchanligini oshirish uchun ham vosita bo‘la oladi.

3. Yaqin ma’noli frazemalar uyushishi ham miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi qonunini yuzaga keltiradi. Bunday frazemalar, asosan, badiiy matnlarda kuzatiladi. Yozuvchi ma’lum bir belgisi bilan yaqin turgan frazemalarni yonma-yon, uyushgan holda muallif va personajlar nutqi tarkibida

qo‘llab, qahramonlar nutqini individuallashtirish maqsadida ishlatadi. Natijada bu iboralar umumiy ma’noda birlashib, uslubiy yaxlitlik hosil qiladi: Dadamlar ichkariga kirib ketdilar-u darhol qaytib chiqdilar. *Chehralari ochilgan, kayflari chog‘ edi.* (O.Yoqubov. Muzqaymoq); “Chehralari ochilgan” frazemasi “xafachiligi tarqalgan”ligi yuzda aks etishini, “kayfi chog‘” frazemasi orqali “kayfiyati yaxshi” langanligi bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo‘lib, shaxsning ijobiy emotsiyasi aks ettirilgan.

So‘z ustalari frazemalar ma’nosini kuchaytirish, bo‘rttirish, konkretlashtirish maqsadida ikki bir-biriga yaqin ma’noli frazeologik birlikni bir kontekst doirasida ketma-ket qo‘llaydilar. Bu esa shu asarning uslubiga xos bo‘lgan ruh va ohangni vujudga keltiradi. O‘quvchining butun diqqatini tasvirlanayotgan asar voqeasiga to‘la jalb etadi: Ilohim, qovoqqinasi o‘chsin uning... *Yuragim laxta-laxta qon bo‘ldi. Qovog‘idan doim qor yog‘adi, vajohati doim qish, doim izg‘irin...* (Cho‘lpon. Kecha va kunduz) “diltang bo‘lmoq, ziq bo‘lmoq” ma’nosini anglatuvchi “yuragi qon bo‘lmoq” frazemasining komponent tarkibida “laxta-laxta” takroriy so‘z qo‘llangan. Bu so‘z ibora semantik tarkibida “nihoyatda, ortiq darajada” semasini hosil qilgan. Personaj nutqida qo‘llangan “Yuragi(m) laxta-laxta qon bo‘lishi”ning sababi yaqin ma’noli frazemalarning uyushib kelishi (qovog‘idan doim qor yog‘adi, vajohati doim qish, doim izg‘irin...) orqali ochib berilgan. Umumnutqqa xos “qovog‘idan [doim] qor yog‘adi” frazemasi “o‘ta darajada xafa” ma’nosini anglatadi, bu frazemaga matnda ma’no jihatdan yaqin badiiy uslubga xoslangan, ruhiy holat ifodasi bo‘lgan “vajohati doim qish”, “vajohati doim izg‘irin” okkazional muallif frazemalari yonma-yon kelgan.

Uslubiy mahsuldorlik, ta’sirchanlik darajasining yanada ortishi asarda ifodalangan mazmunni har xil shaklda va har xil ma’no nozikligida berish tufayli yaratiladi: Shunday-ku, lekin har birining *qalbiga kirib, qo‘yniga qo‘l solib ko‘rsangiz…* Farmonov o‘tirgan joyida ko‘zini katta ochib, yosh bolani erkalaganday kulimsirab qaradi (Asqad Muxtor. Chinor).

3.1. Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi qonunini frazema komponentlari tarkibiga bir so‘zni chiqish kelishigi+yuklama orqali kiritib hosil qilishda ham kuzatiladi**:** Vaqt shom edi. Botir firqani *ko‘ngli... shomdan-da shom bo‘ldi.* Botir firqani *ko‘ngli... shomdan-da ma’yus bo‘ldi, shomdan-da mungli bo‘ldi.* (T.Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi). Adabiy tilda shaxsning “o‘ta darajada g‘amgin” ruhiy holatini “ko‘ngli zimziyo”[1] frazemasi ifodalaydi. Bu holat tasvirini berishda Tog‘ay Murod uch (*ko‘ngli shom bo‘ldi, ko‘ngli ma’yus bo‘ldi, ko‘ngli mungli bo‘ldi*) individual avtor frazemalarini yonma-yon qo‘llab, Botir firqa holatini, ichki kechinmalarini yorqinroq ochishga, asarning ta’sirchanligini oshirishga intiladi. Yozuvchi frazema komponentlari tarkibiga “shomdan-da” so‘zini kiritib, uni kengaytiradi. Bu esa ibora semantikasiga “juda, g‘oyatda” ma’nolarini yuklaydi. Frazema strukturasidagi, komponent tarkibidagi o‘zgarish ma’lum darajada uning semantikasiga ham ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni frazema o‘z ma’nosini o‘zgartiradi yoki qo‘shimcha ma’no ottenkalariga ega bo‘ladi[2]. Kiritilgan komponentdagi – da yuklamasi chiqish kelishigi qo‘shimchasidan keyin qo‘llanib, *ham* yuklamasiga mos keladi. Ham “…ba’zan ma’noni kuchaytiruvchi boshqa vosita ortidan kelib, ana shu vositaning matnda berayotgan ma’nosini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi”[3]. Bu vositalar ibora semantikasini kuchaytirish bilan birga ekspressiv ohangdorligini oshiradi. Frazemalarning *ko‘ngli... shomdan-da shom bo‘ldi, ko‘ngli... shomdan-da ma’yus bo‘ldi, shomdan-da mungli bo‘ldi* frazemalarining uyushib, miqdorning ortib borishi ibora semantikasidagi “g‘oyatda g‘amgin”likning bosqichma-bosqich kuchayib borishini ko‘rsatadi.

3.2.Frazemalarning grammatik tayanch a’zolari takrorlanishida ham miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi qonunini aks ettiradi**:** Oqshom vaqti bo‘ldi. *Olamga-da oqshom qo‘ndi, ko‘nglimga-da oqshom qo‘ndi. Ko‘nglim oqshomday mahzun bo‘ldi* **(**T.Murod. Ot kishnagan oqshom). “Olamga oqshom qo‘nmoq” frazemasi “quyosh botishi bilan tun boshlanishi o‘rtasidagi g‘ira-shira yorug‘ payt”[4] ma’nosini anglatadi. Yozuvchi Tog‘ay Murod bu frazema asosida “kishining xafa holatini aks ettiruvchi” “*ko‘ngliga oqshom qo‘nmoq – ko‘ngli(m) oqshomday mahzun bo‘lmoq*” individual-muallif frazemalarini hosil qilgan. “*Ko‘ngli(m) [oqshomday] mahzun bo‘lmoq*” iborasi tarkibiga “oqshomday” o‘xshatishli leksemasining kiritilishi natijasida frazema okkazional o‘zgarishga sabab bo‘lgan. Bu yaqin ma’noli frazemalar (“*ko‘ngliga oqshom qo‘nmoq – ko‘ngli(m) oqshomday mahzun bo‘lmoq*”)ning ijodiy qayta shakllanib, personaj nutqi tarkibida ketma-ket qo‘llanilishi “butun matnga kuchli obrazlilik “radiatsiyasi” baxsh etadi”[5] .

4**.** Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi frazemalar takrorida ham kuzatiladi: Men *ko‘nglim ketib-ko‘nglim ketib* sovchi qo‘yib edim. Ming qilsa-da, xolamizni qizi-da – darrov ha, deya

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – Б. 156.

[2] Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: Муҳаррир, 2013. – Б. 282.

[3] Karimov S. O‘zbek tilining morfologik stilistikasi. Monografiya. – Samarqand, 2022. – B. 160.

[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, III жилд, 183-б.

[5] Йўлдошев Б., Рашидова У.Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси . – Тошкент: Наврўз нашриёти ДУК, 2016. – Б. 89.

qolib edi. (Otamdan kol.dalalar) “Yoqtirmoq, sevmoq” ma’nolarini anglatuvchi, kontekstda mavhum, ichki ruhiy tushuncha ifodalovchi “ko‘ngli ketmoq” frazemasi asosan so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi. Gapda personaj nutqida takror qo‘llanilgan bu frazema semantikasiga alohida uqtirish, ta’kidlash semalari yuklatilgan.

Adabiy tilimizda “yuragi qon bo‘lmoq” frazemasi “diltang bo‘lmoq, ziq bo‘lmoq” ma’nolarini bildiradi[1]. Bu ma’noni ifodalashda Tog‘ay Murod o‘zining ”Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” asarida “qalbi qon bo‘ldi” okkazional frazemani qo‘llaydi. Ibora tarkibidagi uslubiy betaraf “yurak” komponentining kitobiy uslubga xoslangan “qalb” so‘zi bilan almashtirilishi sifatga ta’sir etib frazemaning uslubiy samaradorligini oshirgan. “An’anaviy frazema bilan o‘zgarishga uchragan frazemalarni bir-biridan farqlash lozim, chunki an’anaviy frazema til hodisasi bo‘lsa, o‘zgarishga uchragan frazemalar nutq hodisasidir, ularning ayrimlari asta-sekinlik bilan kontekstual hodisadan uzual, til hodisasiga o‘tishi mumkin”[2]. Natijada umumnutqqa xoslangan “yuragi qon bo‘lmoq” iborasining kitobiy uslubga xoslangan “qalbi qon bo‘ldi” leksik varianti shakllangan: Botir firqa raykom To‘raqulovga tikilib qoldi…*Qalbi qon bo‘ldi! Qalbi qop-qora qon bo‘ldi!* (T.Murod.Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi) Matnda bu frazema ketma-ket qo‘llanib kelgan. Ikkinchi qayta qo‘llangan frazema tarkibi fonetik usul bilan hosil bo‘lgan “qop-qora” sifat leksemasi bilan individual-ijodiy kengaytirilgan. “Qop-qora” leksemasining qon bo‘lmoq qo‘shma fe’li bilan munosabatga kirishishi natijasida frazema semantik strukturasida “ortiq darajada” siljish yuz berib, uning emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi yanada ortgan.

Shunday qilib, sinonim frazemalar denotat bildirishiga ko‘ra ayni bir ma’noni anglatsa-da, ammo ularning miqdor jihatdan bir nechtaligi har birining ma’lum uslubda qo‘llanishiga ko‘ra xoslanishi, nutq ko‘rinishlarida oz-ko‘p ishlatilishi, ma’no qirrasidagi farq, uslubiy baho – ijobiy yoki salbiy munosabatni namoyon qilishi, ya’ni sifat jihatdan farqini yuzaga chiqarishini kuzatish mumkin. Til birliklari nutqda muayyan sifat va miqdor birligidan iborat bo‘ladi. Har bir sifat jihatdan o‘ziga xos lug‘aviy birlikning miqdor jihatdan o‘ziga xosligi ham mavjud bo‘lib, muayyan me’yorni tashkil etadi.

Resume. This article asserts that synonymous phrases inherently have the same meaning. Quantity and quality, as a general law of development, are more of a philosophical category. This law applies to emotional lexical-phraseological and phraseological synonyms. Their quantitative diversity is characterized by the usage of each synonym in a specific style and various speech forms. Methodological evaluation involves analyzing the positive or negative attitude toward the quality of such phrases.

Резюме. В данной статье утверждается, что синонимические словосочетания по своей природе имеют одинаковое значение. Количество и качество, как общий закон развития, являются скорее философской категорией. Этот закон применяется к эмоциональным лексико-фразеологическим и фразеологическим синонимам. Их количественное разнообразие характеризуется употреблением каждого из них в определённом стиле, а также в различных речевых формах. При методической оценке анализируется положительное или отрицательное отношение к качеству таких словосочетаний.

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – Б. 321.
[2] Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент, Муҳаррир нашриёти, 2013, 282-б.